


TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 639,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48,0 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 287,4 mln. AQSH dollarga (204,9 %ga oshgan) va import hajmi 352,1 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 120,7 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 64,7 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-


ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilga nisbatan,%)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2019 yilning fevral oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, yanvar oyiga nisbatan 58,5 mln. AQSH dollarga ko‘proq eksport qilindi va 173,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 172,6 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu esa yanvar oyiga nisbatan 6,9 mln. AQSH dollariga kamroqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga to‘g‘ri keldi.

2019 yil yanvar va fevral oyida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(mln. AQSH dollari)



2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	151,4	85,6	65,8	23,7
Turkiya	105,2	90,5	14,7	16,4
Qozog'iston	104,7	24,2	80,5	16,4
Rossiya	94,5	28,4	66,1	14,8
J.Koreya	31,3	2,5	28,8	4,9
Braziliya	19,9	0,0	19,9	3,1

(mln. AQSH dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Angliya	17,1	17,1	0,0	2,7
Litva	11,8	0,0	11,8	1,8
Germaniya	11,5	0,3	11,2	1,8
Italiya	8,6	0,3	8,3	1,4
Tojikiston	8,4	1,6	6,8	1,3
Afg'oniston	7,6	7,6	0,0	1,2
Hindiston	7,4	0,5	6,8	1,2
Singapur	7,3	6,2	1,0	1,1
Ukraina	6,8	5,2	1,7	1,1
BAA	6,6	6,5	0,1	1,0
Latviya	4,0	0,0	4,0	0,6
Eron	2,8	1,4	1,5	0,4
Ekvador	2,6	0,0	2,6	0,4
Belarusiya	2,5	1,7	0,8	0,4
Malayziya	2,5	0,1	2,4	0,4
Indoneziya	2,3	2,2	0,1	0,4


Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,5 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-fevral oylarida 50,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 65,5 %ga yoki 14,9 % punktga oshdi.

EKSPORT

2019 yil yanvar-fevral oylarida eksport hajmi 287,4 mln. AQSH dollarga (104,9 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (58,6 %), boshqa turdagi tovarlar (16,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (3,1 %), paxta tolasi (17,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,4 %) shuningdek, mashina va uskunalar (2,5 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	287,4	204,9	100,0	64,2	135,4	100,0	223,1	240,5	100,0
Paxta tolasi	49,8	6,6m	17,3	0,1	8,6	0,1	49,8	-	22,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	9,0	49,5	3,1	4,3	76,6	6,6	4,7	37,5	2,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	4,1	80,6	1,4	2,8	171,5	4,4	1,3	37,1	0,6
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Qora va rangli metallar	168,3	204,3	58,6	19,0	98,6	29,6	149,3	236,7	66,9
Mashina va asbob-uskunalar	7,2	201,6	2,5	2,7	508,3	4,3	4,4	146,7	2,0
Xizmatlar	1,5	125,9	0,5	0,3	171,3	0,5	1,2	117,8	0,5
Boshqalar	47,5	163,0	16,5	35,0	179,8	54,5	12,5	129,3	5,6

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar, paxta tolasiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan,%)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning fevral oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar yanvar oyiga nisbatan 51,2 %ga oshgan.

Xizmatlar eksporti hajmi 1,5 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,9 %ga oshgani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning fevral oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, yanvar oyiga nisbatan 58,5 mln. AQSH dollariga ko'p eksport qilindi va 172,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 1,5 mln. AQSH dollarga yetgan.

2019 yil yanvar va fevral oyida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(o'ylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2019 yil yanvar-fevral, %)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,3 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-fevral oylarida jami 9,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 3,3 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 60,6 %ga kamaygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida 8,8 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 2,8 mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 0,3 ming tonna meva va rezavorlar 0,4 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 ming tonnaga kamroqdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilinmoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 3,3 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60,6 %ni tashkil qildi).

IMPORT

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 352,1 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 120,7 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (32,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (19,9 %), qora va rangli metallar (11,3 %) hamda boshqa mahsulotlar (25,0 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	352,1	120,7	100,0	156,7	94,3	100,0	195,5	155,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	70,1	275,1	19,9	37,9	204,8	24,2	32,3	460,0	16,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	32,8	124,2	9,3	10,8	167,4	6,9	22,0	110,3	11,2
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	3,1	71,6	0,9	2,9	72,5	1,8	0,2	58,3	0,1
Qora va rangli metallar	40,0	97,3	11,3	28,9	81,0	18,4	11,1	205,2	5,7
Mashina va asbob-uskunalar	112,8	75,7	32,0	11,8	16,8	7,5	101,1	127,7	51,7
Xizmatlar	5,3	281,2	1,5	0,0	7,8	0,0	5,3	347,4	2,7
Boshqalar	88,1	201,4	25,0	64,4	205,3	41,1	23,6	191,5	12,1

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.


**Tovarlar va xizmatlar importining o'sish
sur'atlari dinamikasi**
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning fevral oyida import qilingan tovar va xizmatlar yanvar oyiga nisbatan 3,8 %ga kamaygan.


Xizmatlar importi hajmi 5,3 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,5 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 181,2% ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2019 yil yanvar va fevral oyida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar fevral oyida, yanvar oyiga nisbatan 6,9 mln. AQSH dollarga kam import qilindi va 352,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2019 yil yanvar-fevral, %)



Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarining eksport-importi
(2019 yil yanvar-fevral holatiga)

	Eksport-import qilgan korxonalar soni	mln. AQSH doll.	O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz xisobida
Eksport	63	34,9	108,6
Import	165	114,7	210,4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatga 64 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi va Braziliya hamkor davlatlarining jami import hajmi 275,8 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 78,3 %ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:71-230-86-59**